Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/4

Hamida ILHOMOVA[a]

[a]*Masters' Degree Student*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: ilhomovahamida02@gmail.com

ABU HANIFA SHAXSIYATI VA ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abu Hanifa No'mon ibn Sobitning hayoti, ilmiy faoliyati va islom tafakkuri tarixidagi o'rni fiqh, aqida hamda kalom ilmlarining o'zaro bog'liqligi asosida tahlil qilinadi. Abu Hanifaning Kufa ilmiy muhitida olim sifatida shakllanishi, sahobiy va tobeinlar merosidan bahramand bo'lgani, Hammod ibn Abu Sulaymon kabi ustozlarining uning ilmiy kamolotiga ta'siri yoritiladi.*

Tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri Abu Hanifaga nisbat berilgan «al-Fiqh al-akbar», «Fiqh al-absat», «al-Olim va-l-mutaallim», «ar-Risola» va «al-Vasiya» kabi asarlarning manbashunoslik jihatdan o'rganilishidir. Mazkur risolalarning rivoyat zanjirlari, qo'lyozma nusxalari, nashrlari va ularga bildirilgan ilmiy e'tirozlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, «al-Fiqh al-akbar» va boshqa risolalardagi ayrim tushuncha va masalalarning Abu Hanifa davriga mansubligi yuzasidan bildirilgan fikrlar muhokama etiladi. Abu Hanifaning fiqh tushunchasiga keng mazmun bergani, ya'ni uni inson uchun foydali va zararli narsalarni bilish sifatida talqin qilgani asosida fiqh va aqida o'rtasidagi uzviylik ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Abu Hanifani faqat hanafiy fiqhiy mazhabi asoschisi sifatida emas, balki aqida va kalom ilmlarining rivojiga sezilarli hissa qo'shgan alloma sifatida baholash zarurligi asoslanadi. Shu bilan birga, unga nisbat berilgan asarlarning mavjudligi tarixiy manbalarda keng qayd etilgani, biroq bizgacha yetib kelgan nusxalarning to'liq autentikligi masalasi ilmiy munozara uchun ochiq ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar:*Abu Hanifa, hanafiy mazhabi, fiqh, aqida, kalom, al-Fiqh al-akbar, al-Fiqh al-absat, al-Olim va-l-mutaallim, ar-Risola, al-Vasiya, moturidiylik, ahli sunna val jamoa, manbashunoslik, ilmiy meros.*

STUDY OF ABU HANIFA'S PERSONALITY AND SCIENTIFIC HERITAGE

Abstract. *This article analyzes the life, scientific activity, and role of Abu Hanifa Nu'man ibn Thabit in the history of Islamic thought through the interconnectedness of jurisprudence (fiqh), creed (aqida), and speculative theology (kalam). It highlights Abu Hanifa's development as a scholar within the scientific environment of Kufa, his benefit from the heritage of the Companions (Sahaba) and Followers (Tabi'un), and the influence of his teachers, such as Hammad ibn Abi Sulayman, on his scholarly maturity.*

One of the key research directions is the source-critical study of works attributed to Abu Hanifa, including «al-Fiqh al-Akbar», «Fiqh al-Absat», «al-Alim wa-l-Muta'allim», «ar-Risala», and «al-Wasiyya». The chains of transmission (isnad), manuscript copies, editions, and scholarly objections raised regarding these treatises are analyzed. In particular, views concerning the attribution of certain concepts and issues in «al-Fiqh al-Akbar» and other treatises to Abu Hanifa's era are discussed. The integral connection between jurisprudence and creed is elucidated based on Abu Hanifa's broad definition of fiqh, which he interpreted as a person's knowledge of what is beneficial and harmful to them. As a result of the study, it is substantiated that Abu Hanifa should be evaluated not only as the founder of the Hanafi school of law, but also as a scholar who made a significant contribution to the development of creed and kalam. At the same time, it is emphasized that while the existence of works attributed to him is widely recorded in historical sources, the complete authenticity of the extant copies remains open to scholarly debate.

Keywords:*Abu Hanifa, Hanafi school, fiqh, aqida, kalam, al-Fiqh al-Akbar, al-Fiqh al-Absat, al-Alim wa-l-Muta'allim, ar-Risala, al-Wasiyya, Maturidism, Ahl al-Sunnah wal-Jama'ah, source studies, scientific heritage.*

KIRISH

Islom tafakkuri tarixida Abu Hanifa shaxsiyati asosan fiqhiy maktab asoschisi sifatida talqin qilinadi. Biroq ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Abu Hanifa nafaqat fiqh ilmida, balki islom aqidasini himoya qilish va asoslashda ham muhim rol o‘ynagan mutafakkirdir. Aynan uning faoliyati natijasida aqida masalalari ilk bor tizimli va mantiqiy uslubda, dalillarga asoslangan holda muhokama qilina boshlagan.

Bugungi globallashuv sharoitida buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida murakkablashib, haqiqiy ma’no-mazmunini yo‘qotayotgan «imon», «tavhid» va boshqa shu kabi tushunchalarni allomalarning ilmiy merosi va asarlari orqali yoritib berish muhim vazifa hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ana shunday buyuk olimlarning hayoti, bosib o‘tgan yo‘llari, ilmiy merosi, keyingi avlodlarga yozib qoldirgan nodir asarlarini chuqur o‘rganish va ochilmagan jihatlarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

ASOSIY QISM

Islom olamida ahli sunna val jamoaning ikki aqidaviy mazhabidan biri sifatida e’tirof etilgan moturidiylik ta’limoti, shuningdek, to‘rt fiqhiy mazhabdan biri bo‘lgan hanafiylikning ilk tamal toshini qo‘ygan olim Imom Abu Hanifadir. Olimning hayoti va ilmiy merosi nafaqat tarixda, balki bugungi kunda ham o‘zining ilmiy-tarixiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Bundan tashqari, bugungi kunda adashgan toifalarda uchraydigan illatlarga olim o‘z davrida munosabat bildirgani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Hanifa hayoti, faoliyati, ilmiy merosi G‘arb va Sharq olimlari tomonidan o‘rganilib, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, ilmiy maqolalar e’lon qilingan. Olim haqidagi dastlabki ma’lumotlar «Tarixi Bag‘dod», «Tarixi islom», «Siyar a’lom an-nubalo», «al-Javohir al-muziya», «Manoqib al-Kardariy», «Kashf al-asror» kabi manbalarda qayd etilgan (Qurashiy, 1332).

Abu Hanifaning asl ismi No‘mon ibn Sobit ibn Zuto ibn Moh ibn Mirzabon Taymiy Kufiy bo‘lib, hijriy 80-yilda musulmon olamining yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan Kufa shahrida tavallud topgan. Olim kichik sahobiylar davrida yashagani, xususan, sahobiylardan Anas ibn Molik Kufaga kelganda u bilan ko‘rishgani sababli, Abu Hanifa kichik tobeinlardan hisoblanadi (Abu Avvod, 2022).

Kufa shahri sahobiylar, tobeinlar faoliyat yuritgan, ko‘plab fiqhiy maktablarga ega bo‘lgan ilmiy-madaniy markaz bo‘lib, unda Abdulloh ibn Mas’udning ta’siri kuchli edi. Aynan ana shu muhit Abu Hanifa tafakkurining shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

Abu Hanifa xorijiylik, jahmiylik, qadariylik, mo‘taziliylik, mushabbiha va murjia kabi turli aqidaviy oqimlar shakllangan davrda yashab, o‘zining aqidaviy qarashlari bilan ahli sunna val jamoa e’tiqodining tizimlashtirishga hamda uni turli yot g‘oyalardan himoya qilishga ulkan hissa qo‘shgan.

Abu Hanifaning ilmiy salohiyatini yuzaga chiqargan, uni ilm yo‘liga olib kirgan shaxs Abu Amr Sha’biy edi. Uning islom ilmlari, ayniqsa, fiqh sohasida yetuk olim sifatida shakllanishida esa, unga 18 yil davomida ustozlik qilgan Hammod ibn Abu Sulaymon muhim o‘rin tutgan.

Shuningdek, u Ibrohim Naxaiy, Masruq ibn Ajda’, Qodiy Shurayh, Asvad ibn Yazid va Alqama ibn Qays kabi olimlardan ham ta’lim olgan. Ato ibn Abu Raboh, Ikrima va Nofi’ singari o‘z davrining yetuk olimlaridan hadis tinglagan.

Uning ilmiy qarashlarining shakllanishida yuqorida nomlari zikr qilingan olimlardan tashqari, sahobiylardan Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas’ud, Muoz ibn Jabal, Zayd ibn Ali, Muhammad Boqir, Ja’far Sodiq, tobeinlardan Hasan Basriy, Ato ibn Abu Raboh va Said ibn Musayyib kabi ulamolarning ham katta ta’siri bo‘lgan.

Abu Hanifa ilmiy faoliyatining dastlabki yillarida kalom ilmi bilan shug‘ullangan. Ammo u mazkur sohani o‘rganishni umrining oxiriga qadar davom ettirgani yoki yo‘qligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba’zi olimlar uning dastlab kalom ilmi bilan shug‘ullanganini, keyinchalik uni tark etib, fiqh ilmiga o‘tganini, hatto o‘g‘li Hammod ibn Abu Hanifa va boshqa yaqinlariga kalom ilmi bilan shug‘ullanmaslikni tavsiya qilganini aytadilar. Boshqa bir guruh olimlar esa undan bizgacha yetib kelgan asarlarining asosiy qismini aqidaviy masalalarga bag‘ishlangan risolalar tashkil etishini, jumladan, hayotining oxirgi yillarida yozilgan «al-Vasiya» kitobi ham aynan ana shu ilmga oidligini aytib, olimning umrining oxiriga qadar aqida va kalom ilmi bilan shug‘ullanganini ta’kidlaydilar.

Bu o‘rinda Abu Hanifa fiqh ilmiga o‘tgach, kalom sohasini tark etganini da’vo qiluvchi shaxslarning fikrlaridan ayrim misollar keltirish va shu asosida yakuniy xulosaga kelish maqsadga muvofiq. Abu Hanifaning shogirdlaridan Zufar ibn Huzayl (vaf. 775-y.) keltirishicha, Abu Hanifa kalom ilmida yuqori darajaga erishgach, taloq masalasiga oid savolga javob berishda qiyinchilikka duch keladi. Shunda u kalom ilmi amaliy jihatdan foyda bermayotganini ko‘rib, odamlarning ehtiyoji ko‘p tushadigan ilm sifatida fiqh sohasini tanlaydi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Abu Yusuf (vaf. 709-y.) va Haysam ibn Adiy (vaf. 822-y.) kabilar naql qilgan rivoyatga ko‘ra, Abu Hanifa islom ilmlarini o‘rganishni aynan kalom sohasidan boshlagan. Ammo vaqt o‘tishi bilan mazkur ilmning foydasi fiqhga qaraganda, amaliy jihatdan kamligini ko‘rgan. Shuningdek, u arab tili, qiroat va hadis kabi ilmlar ham o‘zini to‘liq qoniqtirmasligini ko‘rib, dunyo va oxirat saodatiga erishish, farz amallarni mukammal ado etish fiqh ilmi orqali ro‘yobga chiqishiga ishongan va shu sababli mazkur sohani tanlagan.

Yahyo ibn Shaybaning rivoyatiga ko‘ra, Abu Hanifa dastlab kalom bilan shug‘ullangan, keyin o‘ziga o‘zi:«Agar bu ish to‘g‘ri va yaxshi bo‘lganida, sahobiylar, tobeinlar va ularning izdoshlari uni tark etmagan bo‘lardilar», deb o‘ylab, fiqh yo‘nalishiga o‘tgan.

«Manoqibi Abu Hanifa» turkumidagi kitoblarda keltirilgan bunday rivoyatlarning mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Abu Hanifa hayotining ma’lum bir bosqichidan so‘ng kalom ilmi bilan shug‘ullanishni tark etgan va mazkur soha bilan shug‘ullanishni ma’qullamagan ko‘rinadi. Biroq bu holat uning risolalaridagi umumiy yondashuviga to‘liq mos kelmaydi. Chunki u o‘z risolalarida inson shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan eng fazilatli ilm Allohning Zoti va sifatlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi, ularni inkor qiluvchilarning shubhalariga raddiya berishga qaratilgan «al-fiqh al-akbar» (katta fiqh) ekanini ta’kidlaydi.

«Al-Olim va-l-mutaallim» asarida esa, u kalom ilmini o‘ziga xos himoya quroliga qiyoslaydi va payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hamda sahobiylar davrida bunday qurolni ishlatishni taqozo qiladigan vaziyat bo‘lmaganligi uchun ular bundan foydalanmaganliklarini, ammo keyingi davrlarda e’tiqodni himoya qilish uchun bunga ehtiyoj yuzaga kelganini aytadi.

Imom G‘azzoliy shuni ta’kidlaydiki, kalom ilmi bilan shug‘ullanish, aqidaviy masalalarni aqliy va naqliy dalillar yordamida isbotlashga urinish, muxoliflarning iddaolarini rad etish, haq bilan botilni ajratish kabi maqsadlar uchun bo‘lsa, zaruriy ehtiyojga aylanadi. Ammo kalom ilmini o‘rganishdan maqsad jamiyatda shubha va fitna uyg‘otish bo‘ladigan bo‘lsa, u holda u bilan shug‘ullanish man qilinishi mumkin. Abu Hanifaning kalom ilmi haqidagi qarashlari aynan shu sabablar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Boshqa tomondan, ko‘plab olimlar Abu Hanifaning kalom ilmida tutgan o‘rnini e’tirof etadilar. Masalan, Muhammad Idris Shofeiy (vaf. 820-y.) shunday deydi:«Odamlar tafsirda Muqotil ibn Sulaymonga, she’riyatda Zubayr ibn Abu Salamaga, kalomda esa Abu Hanifaga muhtojdirlar». Shuningdek, Abdulqodir Bag‘dodiy faqihlar orasida ilk mutakallim va mazhab asoschilari sifatida Abu Hanifa va Shofeiyni qayd etgan. Abu Hafs Umar Zananjariy rivoyat qilishicha, Abu Hanifaning kalom majlislari, xususan, uning xorijiylar, shialar va boshqa shu kabi toifa vakillari bilan bahs-munozaralari u fiqh sohasiga o‘tganidan keyin ham davom etgan.

Abu Hanifa borasida kuchli asosga ega bo‘lgan fikrlarga ko‘ra, u kalom ilmi bilan shug‘ullangan ilk ahli sunna olimlaridan biri hisoblanadi. U xorijiylik va qadariylik kabi oqimlarning qarashlaridan ahli sunna aqidasini himoya qilgan. Olim aynan ana shu maqsadda Basraga bir necha bor safar qilgan. U ilmiy faoliyatining dastlabki yillarida bo‘lgani kabi, umrining oxirida ham aqida masalalari bilan shug‘ullangan. Uning fiqh ilmini o‘rganishi aqida va kalom ilmlariga bo‘lgan qiziqishiga to‘sqinlik qilmagan. Aslida, o‘sha davr olimlarining faoliyatiga qaralsa, bugungi kundaga kabi tor ixtisoslashuv mavjud bo‘lmaganini ko‘rish mumkin. Muayyan bir olim ma’lum bir sohada yetuk bo‘lsa ham, bu uning boshqa islom ilmlari bilan shug‘ullanmaganini anglatmagan.

Abu Hanifaning qarashlari bizgacha ikki yo‘l orqali yetib kelgan. Birinchi yo‘l unga nisbat berilgan risolalardir. Ularning eng mashhurlari aqidaviy masalalarni bayon qilgan asarlar bo‘lib, ular orasida «al-Fiqh al-akbar», «al-Fiqh al-absat», «al-Olim va-l-mutaallim», «ar-Risola» va «al-Vasiya» kabi asarlar, shuningdek, turli rivoyat zanjirlari orqali yetib kelgan hadislarni o‘z ichiga olgan musnadlar mavjud.

Ikkinchi yo‘l esa manoqib, tarix va fiqh kitoblarida tarqoq holda keltirilgan rivoyatlar orqali unga nisbat berilgan fikrlardir. O‘tmishda ham, bugungi kunda ham Abu Hanifa hech qanday asar yozmagan, deb da’vo qilgan shaxslar bo‘lgan. Bunday fikrni ilgari surganlar orasida uni o‘zlariga nisbat berishga uringan ba’zi mo‘taziliylar ham bor. Ular ahli sunnaning aqidaviy qarashlarini o‘zida mujassam etgan mazkur asarlarning Abu Hanifaga tegishli emasligini aytib, uni o‘z mazhablariga mansub deb da’vo qilishgan. Bu da’volarga ayrim sharqshunoslar ham qo‘shilganlar. Biroq islom olamida eng ko‘p tarafdorlarga ega bo‘lgan mazhab asoschisi bo‘lgan Abu Hanifa buni hech qanday asar yozmasdan amalga oshirgan deyish to‘g‘ri emas. Uning davrida asarlar ustozlarning og‘zaki bayonlariga asoslanib, shogirdlar tomonidan yozib olingan. Abu Hanifaning risolalari ham ana shu an’anaga muvofiq tarzda yozilgan.

Abu Hanifaning ustozlari va zamondoshlari orasida turli mavzularda kitob yozgan olimlar ham bo‘lgan. Bunga misol qilib Umar ibn Abdulaziz (vaf. 719-y.) va Zayd ibn Ali Zaynulobidinning (vaf. 740-y.) qadariylik oqimi qarashlariga raddiya berishga qaratilgan

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

risolalari, Hasan Basriyning (vaf. 728-y.) Umar ibn Abdulazizning risolasiga javoban yozgan kitobini, Ja'far ibn Muhammad Sodiqning (vaf. 765-y.) qadariylar, xorijiylar va rofiziylarga raddiya sifatida yozgan risolalarini keltirish mumkin.

Bundan tashqari, tarixiy manbalarda Abu Hanifaning kitoblari mavjud bo'lgani ham ochiq bayon qilingan. Masalan, «Tarixi Bag'dod» asarida keltirilishicha, Abu Muslim Mustamliy Yazid ibn Horun (vaf. 821-y.)dan:«Abu Hanifa va uning asarlari haqida nima deysan?» deb so'raganida, u:«Agar fiqhni o'rganmoqchi bo'lsangiz, ularga murojaat qiling. Chunki men faqihlar orasida uning qarashlariga murojaat qilishni ma'qullamaydigan biror kishini ko'rmadim», deb javob bergan. Sufyon Savriy (vaf. 778-y.) uning «Kitob ar-Rahn» asarini ko'chirib yozgani, Abdulloh ibn Muborak (vaf. 797-y.) esa Avzoiyga (vaf. 774-y.) o'zida mavjud bo'lgan Abu Hanifaga tegishli ushbu asarni ko'rsatgani ham rivoyat qilinadi.

Ibn Nadim (vaf. 995-y.), Faxrul islom Pazdaviy (vaf. 1089-y.), Abu Yusr Muhammad Pazdaviy (vaf. 1100-y.), Abdulaziz Buxoriy (vaf. 1330-y.), Hafizuddin Bazzoziy (vaf. 1424-y.), Toshko'prizoda (vaf. 1561-y.) va Bayoziyzoda kabi mualliflar tomonidan ham Abu Hanifaning kitoblari mavjudligi ta'kidlangan. Olimlar Abu Hanifa qalamiga mansub asarlarning aksari shogirdlari tomonidan yozib olinganini ta'kidlasalar-da, uning Usmon Battiy (vaf. 760-y.)ning o'zini murjia oqimiga mansub ekanligi haqidagi aybloviga javoban yozgan «ar-Risola» kitobi uning o'z qo'li bilan yozilganini e'tirof etadilar.

Abu Hanifa hech qanday asar yozmagan, degan qarash ilmiy jihatdan asossiz bo'lib, haqiqatni aks ettirmaydi. Shu sababli, masala uning risolalari bor yoki yo'qligida emas, balki ularning Abu Hanifaga nisbat berilishidadir. Unga nisbat berilgan va bugungi kunga qadar yetib kelgan asarlarning qay darajada unga tegishli ekanligini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

«Al-Fiqh al-akbar» Abu Hanifaning aqidaviy qarashlarini aks ettiruvchi qisqa va lo'nda asar bo'lib, undan turli rivoyatlar orqali naql qilingan. Mazkur rivoyatlar orasida uning o'g'li Hammod va shogirdi Abu Muti' Hakam ibn Abdulloh Balxiy orqali kelgan rivoyatlar mashhur hisoblanadi. Hammodning rivoyati «al-Fiqh al-akbar», Balxiyning rivoyati esa «al-Fiqh al-absat» nomlari bilan ma'lumdir.

Boyazizzoda ushbu ikki risolaning rivoyat zanjirini quyidagicha keltiradi:«Sadrulislom Pazdaviy Abu YA'qub Sayyariydan, u Abu Ja'far Hinduvoniydan, u Abul Qosim Balxiydan, u esa Nusayr ibn Yahyo Balxiy, Abu Muti' Balxiy, Muhammad ibn Muqotil Roziy va Hammod ibn Abu Hanifadan ikki alohida yo'l orqali rivoyat qilgan».

Zohid Kavsariy (vaf. 1952-y.) «al-Fiqh al-akbar» asarining Madina shahridagi Arif Hikmat kutubxonasida 226-raqam ostida saqlanayotgan nusxasining boshida keltirilgan isnod orqali rivoyat qilinganini qayd etadi. Bu isnod quyidagichadir:«Ali ibn Ahmad Forisiy Nusayr ibn Yahyodan, u Ibn Muqotil (Muhammad ibn Muqotil Roziy)dan, u Isom ibn Yusufdan, u Hammod ibn Abu Hanifadan, u esa Abu Hanifadan rivoyat qilgan».

Aksariyat musulmon olimlari mazkur kitobning Abu Hanifaga nisbat berilishiga qarshi bo'lmasalarda, asarda o'sha davrda dolzarb bo'lmagan ayrim masalalar ham muhokama qilinganini ta'kidlaydilar. Bunday olimlardan biri Ahmad Amin (vaf. 1954-y.) bo'lib, u «al-Fiqh al-akbar»ni Abu Hanifaga tegishli deb qabul qiladi, biroq bizgacha yetib kelgan nusxalarda keyinchalik qo'shimchalar kiritilganini ta'kidlaydi. Ammo bu qo'shimchalarning aynan nimalardan iborat ekanligini aniq ko'rsatmaydi.

Shibliy Nu'moniy (vaf. 1914-y.) va Muhammad Abu Zahro esa bu qo'shimchalarga izoh beradilar. Jumladan, Shibliy «al-Fiqh al-akbar»da uchraydigan «javhar» va «araz» kabi o'z davri uchun nisbatan erta hisoblangan atamalarni mazkur qo'shimchalarga misol sifatida keltiradi. Atamalarning qo'llanilishi, shuningdek, «Qur'onning yaratilganligi» masalasiga haddan tashqari keng ahamiyat berilgani bunga dalil sifatida ko'rsatiladi.

Muhammad Abu Zahro bu borada shunday deydi:«al-Fiqh al-akbar»da shunday masalalarni ko'ramizki, ular Abu Hanifa davrida ham, undan avvalgi asrlarda ham muhokama qilinmagan edi. Bizda mavjud manbalarning hech birida uning zamondoshlari yoki undan oldingi olimlardan birortasining mo'jiza, karomat va istidroj o'rtasidagi farqni tushuntirishga uringanini ko'rmaymiz. Holbuki, «al-Fiqh al-akbar»da shunday deyiladi:«Payg'ambarlarning mo'jizalari va avliyolarning karomati haqdir. Ammo rivoyatlarda kelganidek, Iblis, Fir'avn va Dajjol kabi Alloh dushmanlariga tegishli bo'lib, hozirgacha sodir bo'lgan va kelajakda sodir bo'ladigan hodisalarni na mo'jiza, na karomat deb atamaymiz. Bu istidrojdir, ya'ni ularning ehtiyojlarini qondirish orqali ularni bosqichma-bosqich jazoga olib borishdir. Chunki Alloh dushmanlarining ehtiyojlarini ularni asta-sekin azobga tortish va oxir-oqibat jazolash uchun ado etadi. Ular esa bunga aldanib, yanada haddidan oshadilar. Bu holatlar joiz va mumkin hisoblanadi».

Abu Zahro fikrini davom ettirib shunday deydi:«Avliyolarning karomati bilan kofirlardan sodir

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bo‘ladigan g‘ayritabiiy hodisalar o‘rtasidagi farqqa oid bahslar o‘sha davrga oid munozaralarda uchramaydi. Bunday masalalar islomda tasavvuf paydo bo‘lgandan keyin kalom olimlari orasida muhokama qilina boshlagan. Ular solih avliyolarga Alloh tomonidan berilgan ne’matlar hamda ularning g‘ayritabiiy holatlari haqida so‘z yurita boshlaganlar. Bu esa mazkur masala asarga keyinchalik kiritilgan yoki asarning Imom Moturidiy va Imom Ash’ariy qarashlari asosida qayta tahrir qilingan bo‘lishi mumkinligi haqidagi xulosaga olib keladi.

Bundan tashqari, Payg‘ambardan keyin eng fazilatli insonlar sifatida Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali roziyallohu anhumlar mazkur tartibda zikr qilinishi, ba’zi nusxalarda Payg‘ambar ota-onasining oxiratdagi holati haqida turli fikrlar mavjudligi, keyingi davrlarda paydo bo‘lgan deb taxmin qilinadigan «kasb» (insonning amalni «egallashi») masalasiga ishora qilinishi asarda yoritilgan barcha masalalarni to‘liq Abu Hanifaga nisbat berishni qiyinlashtiradi.

Mavdudiy Abu Hanifa va Abu Yusuf haqida yozgan maqolasida «al-Fiqh al-akbar» kitobining ayrim qismlarining ishonchliligi borasida shubhalar mavjudligini qayd etadi. Shunga qaramay, u o‘zining maqolasida ko‘rib chiqqan to‘rt xalifaning fazilatlari, sahobiylarning maqomi va imon ta’rifi bilan bog‘liq bo‘limlarda shubha yo‘qligini ta’kidlaydi. Chunki ayni qarashlar olimning «al-Vasiya» va «al-Fiqh al-absat» kabi boshqa asarlarida hamda uning shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad orqali rivoyat qilingan qarashlarini jamlagan Tahoviy (vaf. 933-y.)ning «al-Aqida at-tahoviya» asarida ham ushbu fikrlarning o‘rin olgani qayd etiladi.

«Al-Fiqh al-akbar»ga nisbatan bildirilgan yana bir tanqid uning o‘z davrida mavjud bo‘lmagan muayyan tizimli tuzilishga ega ekanligidir. Bunday tizimlashtirish uslubi Imom Abu Hanifaning boshqa asarlarida uchramaydi.

«Al-Fiqh al-akbar» turli tillarga tarjima qilingan. Jumladan,uning urdu tilidagi tarjimasi 1872–1873-yillarda Dehlida, panjob tilidagi tarjimasi 1890-yilda Lahorda, nemis tilidagi tarjimasi 1915-yilda nashr qilingan. Asarning turk tiliga tarjimalari turli davrlarda turli shaxslar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, uning o‘n beshga yaqin sharhlari mavjud.

«Al-Fiqh al-absat» Abu Hanifadan shogirdi Abu Muti’ Hakam ibn Abdulloh Balxiy orqali rivoyat qilingan. Muhammad Zohid Kavsariy nashr qilgan nusxaning isnod zanjirini Misrdagi «Dor al-kutub» kutubxonasida mavjud qo‘lyozmaga tayangan holda quyidagi tartibda keltiradi:«Abu Bakr Muhammad ibn Muhammad Koshoniy Abu Bakr Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiydan, u Abul Muin Maymun ibn Muhammad Makhuliy Nasafiydan, u Abu Malik Nasron ibn Nasr Huttaliydan, u Ali ibn Hasan ibn Muhammad G‘azzoldan, u Abul Hasan Ali ibn Ahmad Forisiydan, u Nusayr ibn Yahyo Faqihdan, u Abu Muti’ Hakam ibn Abdulloh Balxiydan, u esa Abu Hanifadan rivoyat qilgan.

Bayozizodaning ta’kidlashicha, «al-Fiqh al-absat»ning ayrim mavzulari Nasafiyning (vaf. 1115-y.) «Tabsira al-adilla», Nuriddin Buxoriyning (vaf. 1184-y.) «al-Kifoya», Hofiziddin Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad Nasafiyning (vaf. 1302-y.) «al-I’timod», «Sharh al-Umda» va «Kashf al-Manor», Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Natifiyning (vaf. 1054-y.) «al-Ajnas», Qozi Abul Alo Said ibn Muhammad Saidiyning (vaf. 1050-y.) «Kitob al-i’timod», Najmiddin Abu Shujo‘ Nosiriyning (vaf. 1258-y.) «al-Burhon as-soti’ sharh Aqoid at-Tahoviy» asarlarida hamda Abul Mahosin Mahmud ibn Siroj Qunaviyning (vaf. 1369-y.) sharhida uchraydi.

«Al-Fiqh al-absat»ning Istanbuldagi Fotih kutubxonasida 5392/2, Selim Og‘a kutubxonasida 587/3 raqamlari ostida qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Mazkur asar 1890, 1906 va 1949-yil Qohirada uch marta nashr qilingan.

Ushbu asar Ato ibn Ali Juzjoniy va Abu Lays Samarqandiy (vaf. 983-y.) tomonidan sharhlangan. Imom Moturidiy va Ibrohim ibn Ismoil Malatiyga nisbat berilgan sharhlar esa Samarqandiy sharhining o‘zidir.

Zohid Kavsariy Misrdagi «Dor al-kutub» kutubxonasida Abul Lays Samarqandiy nomi aniq ko‘rsatilgan ko‘plab qo‘lyozma nusxalar mavjudligini, bu borada hech qanday shubha yo‘qligini ta’kidlaydi.

Muhammad Abu Zahro mazkur sharhda Ash’ariylarga qarshi javoblar borligiga asoslanib, uning Imom Moturidiyga tegishli bo‘lishi mumkin emasligi haqida xulosa qiladi.

Ibn Nadim (vaf. 995-y.), Abdulqodir Bag‘dodiy (vaf. 1037-y.), Abu Muzaffar Isfaroyiniy (vaf. 1078-y.), Faxrulislom Pazdaviy (vaf. 1089-y.), Abu Yusr Muhammad Pazdaviy (vaf. 1100-y.) kabi ilk davr mualliflarining Abu Hanifaga «al-Fiqh al-absat» nomli alohida asarni nisbat bermaganliklari, shuningdek, Faxrulislom Pazdaviy va Abul Muin Nasafiy kabi olimlarning «al-Fiqh al-akbar» mazmuni haqida zikr qilganda keltirgan ma’lumotlariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, «al-Fiqh al-absat» alohida risola emas, balki «al-Fiqh al-akbar»ning Abu Muti’ Balxiy orqali rivoyat qilingan shakli bo‘lishi mumkin. Ikki rivoyatni bir-biridan ajratish uchun Hammod rivoyati «al-Fiqh al-akbar», Balxiy rivoyati esa «al-Fiqh al-absat» deb nomlangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUHOKAMA

Mazkur nomni dastlab Boyazizzoda, undan keyin esa Zabidiy (vaf. 1790-y.) amalga oshirgan. Hatto undan keyingi davr mualliflari Toshko‘prizoda (vaf. 1561-y.) va Kotib Chalabiy (vaf. 1657-y.) ham Abu Hanifaning asarlarini zikr qilganlarida «al-Fiqh al-absat» nomini tilga olmaydilar. Aksincha, Kotib Chalabiy har ikkala rivoyatni ham «al-Fiqh al-akbar»ga nisbat beradi.

«Al-Olim va-l-mutaallim» asari Abu Hanifaning shogirdi Abu Muqotil Hafs ibn Salom Samarqandiy (vaf. 823-y.) tomonidan berilgan savollar hamda ularga berilgan javoblardan tashkil topgan bo‘lib, jami 43 ta savol-javobni o‘z ichiga oladi.

Zohid Kavsariy «al-Olim va-l-mutaallim» asarining roviylar silsilasini quyidagi tartibda keltiradi: «Abu Hasan Ali ibn Halil Dimashqiy Abu Hasan Burhoniddin Ali ibn Balxiydan, u Abul Muin Maymun ibn Muhammad Makhuliy Nasafiydan, u otasi Abdulkarim ibn Muso Pazdaviydan, u Abu Mansur Moturidiydan, u Abu Bakr Ahmad Juzjoniydan, u Muhammad ibn Muqotil Roziydan, ular Abu Muti’ Hakam ibn Abdulloh Balxiy va Isom ibn Yusuf Balxiydan, u Abu Muqotil Hafs ibn Salom Samarqandiydan, u esa Abu Hanifaga bergan savollariga olingan javoblarni rivoyat qilgan.

«Al-Olim va-l-mutaallim» asarining Istanbuldagi Fotih (5392/1), Asad Afandi (3522/2), Damad Ibrohim (297/41) va Rashid Afandi (1016/1) kutubxonalarida qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Mazkur asar 1930-yilda Haydarobodda, 1949-yilda Qohirada Zohid Kavsariy tomonidan, 1981-yilda Istanbulda Mustafo Oz tomonidan nashr qilingan. Ushbu kitob Ibn Furoq (vaf. 1015-y.) tomonidan sharh qilingan. Shuningdek, Muhammad Ravvos Qal’ajiy va Abdulvahhob Hindiy Nadviy tomonidan tahqiq qilinib, nashr qilingan (Halab, 1972).

«Al-Olim va-l-mutaallim» Imom Moturidiy, Ibn Nadim, Faxrulislom Pazdaviy, Abul Yusr Pazdaviy, Abdulaziz Buxoriy, Bazzoziy hamda Kotib Chalabiy kabi ko‘plab yirik olimlar tomonidan Abu Hanifaga nisbat berilgan. Biroq Zahabiy (vaf. 1348-y.) va uning bu boradagi fikrini qo‘llab-quvvatlagan ayrim sharqshunoslar ushbu nisbatni noto‘g‘ri deb hisoblaydilar.

Zahabiy «Mizon al-i’tidol» kitobida Ahmad ibn Ali Sulaymoniy (vaf. 1021-y.) Abu Muqotil Hafs ibn Salomni «al-Olim va-l-mutaallim» asarining muallifi sifatida tilga olganini qayd etadi. Sharqshunos Jozef Shaxt ham Zahabiyning ushbu fikrini to‘g‘ri deb biladi va qo‘shimcha dalillar bilan uni qo‘llab-quvvatlaydi.

«Ar-Risola» Abu Hanifaning basralik olim Usmon ibn Muslim Battiy (vaf. 760-y.)ga yozgan risolasi bo‘lib, unda o‘ziga nisbatan bildirilgan murjia oqimiga mansublik haqidagi ayblovga javob bergan. Mazkur risolada Usmon Battiyning unga yozgan maktubida «zalolatda qolgan mo‘min» iborasi ishlatilgani, mazkur ibora noto‘g‘ri qo‘llanilganini bayon qilganidan so‘ng, Abu Hanifa o‘z javobida shunday deydi:«Men uchun asos Qur’on va Payg‘ambar (s.a.v.)ning sunnatlaridir. Bulardan boshqa narsalar bilan amal qilganlar bid’at ahlidir». U o‘z qarashlarining to‘g‘riligini oyatlar, hadislar va sahobiylarning qavllari orqali isbotlashga harakat qiladi.

Abu Hanifa o‘zining murjia oqimiga mansublikda ayblanishini quyidagicha baholaydi:«Agar bid’at ahli haqiqat va to‘g‘ri so‘zlovchi kishilarni shu nom bilan atasa, unda haqiqatni aytganlarning bunda qanday aybi bor? Murjialikni bizga dushmanlarimiz nisbat berganlar».

«Ar-Risola» asarining Fotih 5392/6 (116^{b}–124^{a}) va Salim Og‘a 587/10 (170^{b}–184^{a}) kutubxonalarida qo‘lyozma nusxalari mavjud. U Zohid Kavsariy tomonidan 1949-yilda Qohirada nashr etilgan. Shuningdek, Mustafo O‘z tomonidan 1981-yilda turkcha tarjimasi bilan birga chop qilingan.

Abu Hanifaning Usmon Battiyga yozgan yana boshqa bir risolasi ham bo‘lib, u Salim Og‘a kutubxonasida 581/11 (174^{a}–176^{b}) raqam ostida saqlanadi.

Abu Hanifaning asarlari ichida bevosita mualliflik uslubida yozilgan yagona asar mana shu risola hisoblanadi. Qolgan asarlarning barchasi imlo uslubida yozilgan deb taxmin qilinadi.

«Al-Vasiya» Abu Hanifaning o‘g‘li Hammodga, shuningdek, shogirdlari Abu Yusuf (vaf. 798-y.) va Yusuf ibn Xolid Samtiyga hamda boshqa yaqinlariga yozgan risolalari mavjud. Bizgacha yetib kelgan «al-Vasiya» uning do‘stlari va shogirdlariga qilgan vasiyati bo‘lib, u Abu Muqotil Hafs ibn Salom Samarqandiy (vaf. 798-y.) orqali rivoyat qilingan. Shuningdek, uning Abu Yusuf orqali kelgan rivoyatlari ham mavjud. Zohid Kavsariy o‘z nashrining muqaddimasida aynan shu rivoyatga tayanganini ta’kidlaydi. Abu Hanifaning o‘g‘li Hammodga qilgan vasiyatiga Usmon ibn Mustafo tomonidan «Zubdat an-nasoih» nomli sharh yozilgan.

Abu Hanifaning ayrim do‘stlariga yozgan nasihatlari turli kutubxonalarda qo‘lyozma holida saqlanadi. Ular Akmaliddin Bobirtiy (vaf. 1384-y.), Mulla Husayn ibn Iskandar Rumiy (vaf. 1672-y.) va Nuriddin Afandi Uskudariy (vaf. 1844-y.) tomonidan sharhlangan.

Ibn Nadim esa bunga qo‘shimcha ravishda «Radd ala-l-qadariya» nomli risolani ham Abu Hanifaga nisbat beradi. Abdulqodir Bag‘dodiy esa bu asar bilan «al-Fiqh al-akbar» bir xil asar ekanligini ta’kidlaydi. Abdulqodir

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Bag‘dodiy mazkur ikki asarning bir xil ekanini ta’kidlaydi. Kotib Chalabiy esa «Radd ala-l-qadariya» Abu Hanifaning nabirasi Ismoil ibn Hammodga (vaf. 827-y.) tegishli ekanini qayd etgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abu Hanifa fiqhiy mazhab asoschisi sifatida ko‘proq shu jihati bilan mashhur bo‘lsa-da, u faqat faqih emas, balki aqida va kalom ilmlari rivojida o‘chmas va yorqin iz qoldirgan allomadir. Aslida, uning ta’rifiga ko‘ra, fiqh – bu insonning o‘zi uchun foydali va zararli narsalarni bilishidir. Bu bilimlarning e’tiqodga oid qismi «al-fiqh al-akbar», ibodat va muomalotga oid qismi esa «al-fiqh fi-l-ahkom» yoki «al-fiqh fi-d-din» deb ataladi.

Shu sababli, Abu Hanifaning fiqh bilan shug‘ullangani yoki fiqhning fazilati haqida so‘z yuritilganda, faqatgina amaliy fiqh (furu’ al-fiqh) emas, balki kalom ilmi ham nazarda tutiladi. Chunki u «fiqh» tushunchasiga aynan shunday keng ma’no bergan. Demak, uning kalom ilmiga e’tibor bermagani haqidagi da’volar asossizdir.

Abu Hanifaning risolalarining ishonchliligi masalasiga kelsak, uning kalom ilmiga oid «al-Fiqh al-akbar», «al-Olim va-l-mutaallim» va «ar-Risola» kabi asarlarning nomlari ilk davrlardan boshlab ilmiy adabiyotlarda tilga olinib kelinayotgani inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Biroq bizgacha yetib kelgan nusxalarning qanchalik darajada asl ekanligi muhokama talab masaladir.

Mazkur risolalar umumiy holda tahlil qilinganda, ularda o‘zaro zid fikrlar mavjud emas. Ammo ba’zan Abu Hanifa yashagan davrda hali qo‘llanilmagan ayrim tushuncha va qarashlar uchraydi. Shu sababli, ushbu risolalarda bayon etilgan barcha fikrlarni to‘liq ravishda Abu Hanifaga nisbat berish qiyin, degan xulosaga kelish mumkin.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Abul Vafo Qurashiy. (1332 AH). *Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya*. Maktaba al-maorif.
2. Akrom Muhammad Ismoil Abu Avvod. (2022). *Majmu’ kutub va rasoil va vasoyo al-Imom al-A’zam Abi Hanifa*. Maktaba al-g‘onim li-n-nashr va-t-tavzi’.
3. Karimullo Mirzaahmedov. (2017). *Hadis ilmiga oid manbalarda Abu Hanifaning muhaddis sifatida yoritilishi* [Magistrlik dissertatsiyasi, Inv. No. 52370]. Toshkent.
4. Saidmuxtor Oqilov. (2012). *Movarounnahrda moturidiya ta’limotining shakllanish tarixi*. Movarounnahr.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). *Sunniy aqidalar*. Movarounnahr.
6. Abul Muntaho Ahmad ibn Muhammad Mag‘nisaviy. (2018). *Sharh al-Fiqh al-akbar*. Dor as-siroj.
7. Mulla Ali ibn Sulton Muhammad Qoriy. (1998). *Sharh al-Fiqh al-akbar*. Dor al-bashoir al-islomiya.

REFEREYCES:

1. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Abul Vafo Qurashiy. (1332 AH). Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya. Maktaba al-maorif.
2. Akrom Muhammad Ismoil Abu Avvod. (2022). Majmu’ kutub va rasoil va vasoyo al-Imom al-A’zam Abi Hanifa. Maktaba al-g‘onim li-n-nashr va-t-tavzi’.
3. Karimullo Mirzaahmedov. (2017). Hadis ilmiga oid manbalarda Abu Hanifaning muhaddis sifatida yoritilishi [Magistrlik dissertatsiyasi, Inv. No. 52370]. Toshkent.
4. Saidmuxtor Oqilov. (2012). Movarounnahrda moturidiya ta’limotining shakllanish tarixi. Movarounnahr.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). Sunniy aqidalar. Movarounnahr.
6. Abul Muntaho Ahmad ibn Muhammad Mag‘nisaviy. (2018). Sharh al-Fiqh al-akbar. Dor as-siroj.
7. Mulla Ali ibn Sulton Muhammad Qoriy. (1998). Sharh al-Fiqh al-akbar. Dor al-bashoir al-islomiya.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.